

М. Ҳасанов М. Абзалова

АРАБ ТИЛИ ДАРСЛАРИ

تُرُوسٌ فِي اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ

O'quv qo'llanma

Toshkent-2008

Mirqobil Hasanov
Muborak Abzalova

АРАБ ТИЛИ ДАРСЛАРИ

تُرُوسٌ فِي اللُّغَةِ الْعَرَبِيَّةِ

O'QUV QO'LLANMA

•

Toshkent 2004
“Mavarounnahr”

Muharrir:
f.f.n. dostent Z. Mirxoliqov

Taqrizchilar:
f.f.d. professor Z. Islomov
f.f.n. dostent L. Xalilov

M. Hasanov, M. Abzalova
Arab tili darslari. –T.: Mavarounnahr,
2004. – 224 b.

Annotastiya

Mazkur o'quv qo'llanmasi oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti hamda tarix ixtisosligi talabalari, shuningdek, arab tilini mustaqil o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, u arab tili fani bo'yicha tuzilgan o'quv dasturi asosida yozildi. Ushbu qo'llanma o'z ichiga arab tili grammatikasining barcha bo'limlarini to'la qamrab olgan. SHuningdek, qo'llanmada boy tariximizga oid manba'lardan parchalar, mutafakkir allomalar hayoti haqida matnlar, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan maqollar, hikmatli so'zlar va hadislardan namunalar berilgan.

O'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining 2004
yil 29.04 dagi 10-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

SO'Z BOSHI

O'zbek tili o'z taraqqiyotida turkiy va turkiy bo'lmagan tillar bilan aloqada bo'lib, ular o'zbek tilining lug'at tarkibi grammatik qurilishiga bevosita ta'sir etgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va Volga bo'yida Islom dinining tarqalishi, XI asrdan keyin fan tili sifatida arab tilining tarqalishi o'zbek tilida arab elementlarining keng qo'llanishiga olib keldi. O'zbek tili tarkibiga arab elementlarining kirib kelishi fors tili, ya'ni forsiy

badiiy adabiyot tili orqali ham yuz bergan. Demak, o'zbek badiiy adabiyoti, o'zbek adabiy tili taraqqiyotida arab tilining o'rni sezilarlidir. Bu esa hozirgi ilm toliblariga arab tilining xususiyatlarini zaruriyat darajasida bilishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, ma'naviyatimiz tarixiga oid bo'lgan ilmiy va adabiy asarlarning aksariyati arab tilida bitilgan. Bu asarlarni bugungi kunda o'rganish muhim ahamiyat kasb etib, til va adabiyot, tarix kabi fanlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotganlar uchun muhim manba' bo'lib hisoblanadi. Arab yozuvi va tilini o'rganish tarixiy manba'lar bilan tanishish va ulardan ilmiy, amaliy maqsadlarda foydalanish imkonini beradi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng sharq tillarini, xususan, arab tilini o'rganishga katta ahamiyat berila boshlandi va bu sohada muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, arab tili fanidan dasturlar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar o'zbek tilida yozila boshlandi. Hozirgi kunda arab tili Respublikamizning Toshkent Davlat SHarqshunoslik institutida, Toshkent Islom universitetida asosiy fan sifatida o'qitilsa, O'zbekiston Milliy universiteti va Jahon tillari universitetining barcha fakultetlari, Toshkent Davlat pedagogika universitetining filologiya va tarix fakultetlarida ham o'qitilib kelinmoqda. B.Z. Xolidovning «Uchebnik arabskogo yazo'ka», E. Talabovning «Arab tili», N. Ibrohimov va M. YUsupovning « Arab tili grammatikasi» kabi darsliklari nomutaxassis fan sifatida o'qitiladigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga ularda arab tilini o'qitish soatlarining kamligi tufayli biroz murakkablik qiladi. SHuning uchun yuqorida ko'rsatilgan oliy ta'lim muassasalari talabalarini uchun o'quv qo'llanmalarini tayyorlashga ehtiyoj sezilmoqda. Mavjud talabni qondirish maqsadida o'shbu o'quv qo'llanmasi yozildi.

O'quv qo'llanmasi oliy ta'lim muassasalarining o'zbek tili va adabiyoti, tarix va ijtimoiy fanlar o'qitiladigan boshqa yo'nalishlar talabalarini uchun mo'ljallangan.

Ushbu qo'llanma arab tili fani bo'limlari, ya'ni fonetika, yozuv, morfologiya va sintaksisni o'z ichiga olgan. Har bir bo'lim ilmiy-metodik izchillikda yoritilgan.

Qo'llanma ikki qismdan iborat: boshlang'ich qism va asosiy qism.

Boshlang'ich qismda o'quvchi, asosan, arab tili fonetikasi va yozuvi bilan tanishadi. Dastlab, arab tili tovushi tizimining transkriptiyasi, ularning yozuvdagi ifodasi, ko'rinishlari va boshqa imlo xususiyatlari berilgan. Har bir mavzu mashqlar bilan mustahkamlangan. Bu bo'limda berilgan mashqlar nafaqat alohida so'zlar, balki so'z birikmalari, xatto sodda gaplardan tuzilgan bo'lib, talabani u yoki bu so'z hamda so'z

birikmalarini erkin va to'g'ri talaffuz qila olishi va yoza bilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism o'z ichiga arab tili grammatikasining bo'limlari – morfologiya va sintaksisni qamrab olgan.

Har bir darsda berilgan grammatik mavzu mos mashq va matnlar bilan mustahkamlangan. Mazkur qo'llanmadagi matnlar arab davlatlarida chop etilgan sof adabiy arab tili manba'lari ichidan saralab, tanlab olingan. Har bir matndan so'ng notanish so'zlarning tarjimalari berilganki, bu o'quvchiga tilni yaxshi o'zlashtirishi uchun katta yordam beradi.

Ushbu qo'llanma bu sohada qilingan dastlabki tajribalardan bo'lgani uchun unda kamchiliklar bo'lishi tabiiydir. Mualliflar qo'llanma haqida bildirilgan xolis maslahatlarni mamnuyat bilan qabul qiladilar.

TDPU katta o'qituvchisi: *Muborak Abzalova.*

TIU katta o'qituvchisi: *Mirqobil Hasanov.*

BOSHLAN/ICH QISM الْقِسْمُ الْإِبْتِدَائِيُّ

YOZUV, FONETIKA VA MORFOLOGIYA

KIRISH

Tillarni o'rganadigan fan *tilshunoslik ilmi* (عِلْمُ اللُّغَةِ) deb ataladi. Uning:

1. *Fonetika* (عِلْمُ الْأَصْوَاتِ) - tovush va uning yozuvdagi ifodasini o'rganuvchi fan;
2. *Morfologiya* (الصَّرْفُ) - so'zlarni o'rganuvchi fan;
3. *Sintaksis* (النَّحْوُ) - gap tuzilishini o'rganuvchi fan turlari bor.

Arab tili. Arab tili somiy tillari oilasining janubiy shahobchasiga oid bo'lib u o'z geneologik taraqqiyotida uch bosqichni bosib o'tdi: qadimgi adabiy arab tili, klassik adabiy arab tili va zamonaviy adabiy arab tili.

Qadimgi adabiy arab tiliga Arabiston yarim oroli va Suriyaning janubidagi qadimiy obidalar va qoyalarda topilgan yozuvlar misol bo'ladi. Ularning eng qadimgilari eramizning IV-VI asrlariga oiddir.

Klassik adabiy arab tilida esa eramizning VI-VII asrlarida asarlar bitilgan. Biz ularda mukammal grammatik qurilishga ega bo'lgan, keng leksik tarkibli, johiliy davri nazmi va qabilalar lahjalarining nodir xususiyatlarini o'zida

mujassam etgan boy tilni ko'ramiz. Klassik adabiy arab tili hozirgi zamon adabiy arab tilining shakllanishi uchun zamin bo'ldi. IX-X asrlarda klassik davrning adabiy tili to'la shakllanib bo'ldi. Bu davrga kelib Qur'oni karim, qadimiy nazm va Quraysh lahjasi ta'siri ostida arab yozuvi va sarf va nahvi shakllandi. Qur'oni karimning nozil bo'lishi bilan klassik arab tili badiiyati yanada go'zallashdi va grammatik meyorlar mukammallashdi. Etuk grammatik nizom va lug'at boyligiga ega bo'lgani uchun klassik arab tili qabilalar o'rtasidagi adabiy til bo'lib xizmat qildi. Uning lug'at boyligi shevalar hisobiga ham ko'payib bordi. Klassik arab tili Islom dini bayrog'i ostida YAqin va O'rta SHarqqa, Markaziy Osiyo va Afrikaning ko'p qismiga tarqaldi. O'rta Osiyoda u uzoq muddat xalqaro va bilim tili bo'lib keldi. Dunyo fani ravnaqida chuqur iz qoldirgan buyuk bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy va Ahmad al-Farg'oniyar shu tilda ijod qilishgan.

Klassik adabiy arab tili leksik jihatdan biroq o'zgargan holda hozirgacha arablarning adabiy tili bo'lib kelmoqda. Buning asosiy sababi arab dunyosi va barcha musulmon dunyosini birlashtirib turuvchi Qur'oni karim, muqaddas Hadis va boshqa mo'tabar manbalardir. Adabiy arab tili XIX asrdan boshlab yangicha ruhda shakllana boshladi. Yangi zamonaviy texnika va taraqqiyot tushunchalari va predmetlarni ifodalash uchun unga Ovrupo tillaridan ko'p o'zlashtirma so'zlar kirdi.

Arab alifbosi. Arab alifbosi 28 ta undosh harfdan iborat. Yozuvda bu harflar 28 ta undosh tovushni ifodalaydi. Ularning ichidagi 3 ta unlisifat undosh yana, bundan tashqari, arab tilidagi 3 ta uzun unli tovushlarni ham ifoda etadi.

Undosh harflar. Undosh harfning 4 ta: mustaqil, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida ko'rinishlari bor. Arab harfi alifbodagi boshqa harflar bilan ikki tomoni yoki faqat o'ng tomoni bilan birikadi. Alifbodagi 28 ta harfning 22 tasi boshqa harfga ikki tomoni bilan birikadi. Ular to'rt ko'rinishli harflardir. Qolgan 6 tasi boshqa harfga faqat bir (o'ng) tomoni bilan birikadi. Ular ikki ko'rinishli harflardir (ya'ni mustaqil va so'z boshida ko'rinishlari va so'z o'rtasida va so'z oxirida ko'rinishlari bir xil shakldadir). Bir so'zda ketma-ket kelgan ikki ko'rinishli harflar bir-biriga qo'shilmay yoziladi.

Unli tovushlar. Arab tilida 6 ta unli tovush bor. Ular uchta uzun-«a:», «i:», «u:» va uchta qisqa-«a», «i», «u» unli tovushlaridir. Uzun unliharflar alifbodagi 3 ta undosh harf yorda-mida ifodalanadi. Ular qisqa unliga qaraganda cho'zibroq talaffuz qilinadi.

Alifboda qisqa unliharflar ifoda etadigan harflar yo'q. Qisqa unliharflar yozuvda harakatlar deb ataladigan belgilar bilan belgilanadi. Harakatlar Qur'on karimda, darslik va lug'atlarda to'g'ri o'qishga o'rgatish maqsadida qo'yiladi. Zamonaviy arab adabiyoti va vaqtli matbuot yozuvlarida harakatlar qo'yilmaydi.

Unliharflarning uzun yoki qisqaligiga rioya qilmaslik so'zlarning ma'nolarini tubdan o'zgartirib yuboradi!!!

Arab yozuvi. Arab yozuvi o'ngdan chapga qarab yoziladi, bo'g'in ko'chirilmaydi. Harflar satr ustiga yoki satr ostiga yozilishi bilan ham o'zaro farqlanadi va bir-biriga kichkina chiziqcha bilan birikadi.

Arab yozuvining bir necha turlari mavjud bo'lib, ular kufiy, suls, riq'a, nash, ta'liyy, nasta'liq va rayhoniyy kabilardir.

BIRINCHI DARS الدَّرْسُ الْأَوَّلُ

ا, ب, ت, ن UNDOSHLARI. HARAKATLAR

ا ا ا ا ب ب ب ب ت ت ت ت ن ن ن ن

Imlosi: ا harfi faqat o'zidan oldingi harfga qo'shilib yoziladigan ikki ko'rinishli harfdir. U faqat satr ustida yoziladi.

ب, ت, ن harflari o'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shilib yoziladigan to'rt ko'rinishli harflardir. Ular satr ustidan yoziladi. Faqat ن harfining alohida va so'z oxirida ko'rinishining yarmi satr ustidan va qolgan yarmi satr ostidan yoziladi.

YOzuvda undosh harfdan keyin kelayotgan qisqa unli tovushlarni quyidagi 3 ta harakat ifoda etib keladi:

– q a (fatha); – q i (kasra); – q u (damma);

Undosh harfdan so'ng unli tovush kelmaganda ushbu – q (sukun) belgisi yoziladi:

bab-بَب bu-بُ bi-بِ ba-بَ b-بْ

Alifbening birinchi harfi- alif harfi so'zda ikki xil vazifani bajaradi:

1. Kursi vazifasini bajaradi. So'zda biror unli harakat bilan kelayotgan

ushbu hamza (ء) undoshiga kursi bo'lib «'a», «'i», «'u» tovushlarini ifodalaydi. Hamzaning talaffuzi ushbu unilarning talaffuziga qo'shilib chiqadi.

2. Uzun «a:» unlisini ifodalaydi. Alif harfi yozuvda ushbu – q a (fatha) harakatidan keyin kelsa, u arab tilidagi cho'ziq «a:» unlisini ifodalaydi. Cho'ziq «a:» unlisini madda belgisi (~) deb ataluvchi ushbu belgi ham ifodalab keladi. Bu belgiga ham «kursi» vazifasini alif harfi bajaradi:

ba: - بَا q بَ 'a: آ 'أ 'u- أُ 'i- إ 'a- أ

TANVIN DAMMA

Tanvin ismning oxiriga qo'shiladigan, aytiladigan- u, ammo yozuvda aks etmaydigan ortiqcha sukunli nun-ن dir. Yozuvda qo'shaloq tarzda yozilgan qisqa unli harakatining ikkinchi-«ortiqcha»si tanvindir. Masalan, tanvin damma

qo'shaloq damma harakati- [ۛ] bilan yoziladi va «un» deb o'qiladi. Bu erdagi ikkinchi harakat ushbu sukunli nunni ifodalab kelayapti. **Tanvin damma ismning bosh kelishikda ekanligini bildiradi.**

1- mashq. O'rgangan harflarning har bir ko'rinishini ikki qatordan yozib chiqing.

2- mashq. Harflarni bir- biriga mos ko'rinishlarida qo'shib so'zlarni yozing, ularni o'qing va yod oling:

tavba qildim	تُؤْبِتُ	ota	أُؤْبُ
tavba qilding (er)	تُؤْبِتَ	o'g'il	أُؤْبُنْ
tavba qilding(qiz)	تُؤْبِتِ	qiz	بِؤْبُنْتُ
tavba qildi(qiz)	تَؤْبِتَ	tavba qildi(er)	تَؤْبِ
Men	أُؤْبِ	Sen (qiz)	أُؤْبِتِ
Sen (er)	أُؤْبِتَ	eshik	بِؤْبُ

3- mashq. Jumalarni o'qing, tarjima qiling. Har bir jumlani bir qatordan yozib mashq qiling.

أَنَا أُؤْبُ. أَنْتَ إِبْنُ. أَنْتِ بِنْتُ. أَنَا إِبْنُ. أَنَا بِنْتُ. أَنْتَ أُؤْبُ.
بَابُ. أَنَا تُؤْبِتُ. أَنْتِ تُؤْبِتُ. أَنْتَ تُؤْبِتُ. تَابَ أُؤْبُ. تَابَتْ بِنْتُ.
تَابَ إِبْنُ.

BOSHLAN/ICH QISM الْقِسْمُ الْاِبْتِدَائِيُّ

YOZUV, FONETIKA VA MORFOLOGIYA

KIRISH

Tillarni o'rganadigan fan *tilshunoslik ilmi* (عِلْمُ اللُّغَةِ) deb ataladi. Uning:

1. *Fonetika* (عِلْمُ الْأَصْوَاتِ) - tovush va uning yozuvdagi ifodasini o'rganuvchi fan;

3. *Morfologiya* (الصَّرْفُ) - so'zlarni o'rganuvchi fan;

3. *Sintaksis* (النَّحْوُ) - gan tuzilishini o'rganuvchi fan turlari bor.

Arab tili. Arab tili somiy tillari oilasining janubiy shahobchasiga oid bo'lib u o'z geneologik taraqqiyotida uch bosqichni bosib o'tdi: qadimgi adabiy arab tili, klassik adabiy arab tili va zamonaviy adabiy arab tili.

Qadimgi adabiy arab tiliga Arabiston yarim oroli va Suriyaning janubidagi qadimiy obidalar va qoyalarda tonilgan yozuvlar misol bo'ladi. Ularning eng qadimgilari eramizning IV-VI asrlariga o'g'ir.

Klassik adabiy arab tilida esa eramizning VI-VII asrlarida asarlar bitilgan. Biz ularda mukammal grammatik qurilishga ega bo'lgan, keng leksik tarkibli, johiliy davri nazmi va qabilalar lahjalarining nodir xususiyatlarini o'zida mujassam etgan boy tilni ko'ramiz. Klassik adabiy arab tili hozirgi zamon adabiy arab tilining shakllanishi uchun zamin bo'ldi. IX-X asrlarda klassik davrning adabiy tili to'la shakllanib bo'ldi. Bu davrga kelib Qur'oni karim, qadimiy nazm va Quraysh lahjasi ta'siri ostida arab yozuvi va sarf va nahvi shakllandi. Qur'oni karimning nozil bo'lishi bilan klassik arab tili badiiyati yanada go'zallashdi va grammatik meyorlar mukammallashdi. Etuk grammatik nizom va lug'at boyligiga ega bo'lgani uchun klassik arab tili qabilalar o'rtasidagi adabiy til bo'lib xizmat qildi. Uning lug'at boyligi shevalar hisobiga ham ko'payib bordi. Klassik arab tili Islom dini bayrog'i ostida YAqin va O'rta SHarqqa, Markaziy Osiyo va Afrikaning ko'p qismiga tarqaldi. O'rta Osiyoda u uzoq muddat xalqaro va bilim tili bo'lib keldi. Dunyo fani ravnaqida chuqur iz qoldirgan buyuk bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy va Ahmad al-Farg'oniylar shu tilda ijod qilishgan.

Klassik adabiy arab tili leksik jihatdan biroz o'zgargan holda hozirgacha arablarning adabiy tili bo'lib kelmoqda. Buning asosiy sababi arab dunyosi va barcha musulmon dunyosini birlashtirib turuvchi Qur'oni karim, muqaddas Hadis va boshqa mo'tabar manbalardir. Adabiy arab tili XIX asrdan boshlab yangicha ruhda shakllana boshladi. YAngi zamonaviy texnika va taraqqiyot tushunchalari va predmetlarni ifodalash uchun unga Ovrupo tillaridan ko'p o'zlashtirma so'zlar kirdi.

Arab alifbosi. Arab alifbosi 28 ta undosh harfdan iborat. YOzuvda bu harflar 28 ta undosh tovushni ifodalaydi. Ularning ichidagi 3 ta unlisifat undosh yana, bundan tashqari, arab tilidagi 3 ta uzun unli tovushlarni ham ifoda etadi.

Undosh harflar. Undosh harfning 4 ta: mustaqil, soʻz boshida, soʻz oʻrtasida va soʻz oxirida koʻrinishlari bor. Arab harfi alifbodagi boshqa harflar bilan ikki tomoni yoki faqat oʻng tomoni bilan birikadi. Alifbodagi 28 ta harfning 22 tasi boshqa harfga ikki tomoni bilan birikadi. Ular toʻrt koʻrinishli harflardir. Qolgan 6 tasi boshqa harfga faqat bir (oʻng) tomoni bilan birikadi. Ular ikki koʻrinishli harflardir (yaʼni mustaqil va soʻz boshida koʻrinishlari va soʻz oʻrtasida va soʻz oxirida koʻrinishlari bir xil shakldadir). Bir soʻzda ketma-ket kelgan ikki koʻrinishli harflar bir- biriga qoʻshilmay yoziladi.

Unli tovushlar. Arab tilida 6 ta unli tovush bor. Ular uchta uzun-«a:», «i:», «u:» va uchta qisqa-«a», «i», «u» unli tovushlaridir. Uzun unlihar alifbodagi 3 ta undosh harf yorda-mida ifodalanadi. Ular qisqa unliga qaraganda choʻzibroq talaffuz qilinadi.

Alifboda qisqa unlini ifoda etadigan harflar yoʻq. Qisqa unlihar yozuvda harakatlar deb ataladigan belgilar bilan belgilanadi. Harakatlar Qurʼon karimda, darslik va lugʼatlarda toʻgʻri oʻqishga oʻrgatish maqsadida qoʻyiladi. Zamonaviy arab adabiyoti va vaqtli matbuot yozuvlarida harakatlar qoʻyilmaydi.

Unlilarning uzun yoki qisqaligiga rioya qilmaslik soʻzlarning maʼnolarini tubdan oʻzgartirib yuboradi!!!

Arab yozuvi. Arab yozuvi oʻngdan changa qarab yoziladi, boʻgʻin koʻchirilmaydi. Harflar satr ustiga yoki satr ostiga yozilishi bilan ham oʻzaro farqlanadi va bir-biriga kichkina chiziqcha bilan birikadi.

Arab yozuvining bir necha turlari mavjud boʻlib, ular kufiy, suls, riqʼa, nash, taʼliyy, nastaʼliq va rayhoniy kabilardir.

BIRINCHI DARS الدَّرْسُ الْأَوَّلُ

ن , ت , ب , ا UNDOSHLARI. HARAKATLAR

ا ا ا ا ب ب ب ب ت ت ت ت ن ن ن ن

Imlosi: ا harfi faqat oʻzidan oldingi harfga qoʻshilib yoziladigan ikki koʻrinishli harfdir. U faqat satr ustida yoziladi.

ب , ت , ن harflari oʻzidan oldingi va keyingi harflarga qoʻshilib yoziladigan toʻrt koʻrinishli harflardir. Ular satr ustidan yoziladi. Faqat ن harfining alohida va soʻz oxirida koʻrinishining yarmi satr ustidan va qolgan yarmi satr ostidan yoziladi.

YOzuvda undosh harfdan keyin kelayotgan qisqa unli tovushlarni quyidagi 3 ta harakat ifoda etib keladi:

Men	أَقْنَا	Sen (qiz)	أَقْنَتِ
Sen (er)	أَقْنَتَ	eshik	بَقْاھِبُ

3- *mashq. Jummalarni o'qing, tarjima qiling. Har bir jumlani bir qatordan yozib mashq qiling.*

أَنَا أَبٌ. أَنْتَ ابْنٌ. أَنْتِ بِنْتُ. أَنَا ابْنٌ. أَنَا بِنْتُ. أَنْتَ أَبٌ.
 بَابٌ. أَنَا تُبْتُ. أَنْتَ تُبْتُ. أَنْتِ تُبْتُ. تَابَ أَبٌ. تَابَتْ بِنْتُ.
 تَابَ ابْنٌ.

الدَّرْسُ الثَّانِي IKKINCHI DARS

ي, ذ, د, ه, و, UNDOSHLARI

و و و و ه ه ه ه د د د د ذ ذ ذ ذ ي ي ي ي

Imlosi: و harfi ikki ko'rinishli harfdir. Uning yarmi satr ustida va qolgan yarmi satr ostida yoziladi.

د va ذ harflari ham ikki ko'rinishli harflardir. Ular faqat satr ustida yoziladi.

ه harfi to'rt ko'rinishli harfdir. Uning so'z o'rtasida ko'rinishidan boshqa hamma ko'rinishlari satr ustida yoziladi.

ي harfi to'rt ko'rinishli harfdir. Uning so'z boshida va so'z o'rtasida ko'rinishlari satr ustida, alohida va so'z oxirida ko'rinishlarining yarmi satr ustidan va qolgan yarmi satr ostidan yoziladi.

Talaffuzi: ه undoshini talaffuz qilish jarayonida nutq a'zolari erkin vaziyatda bo'ladi. Halqumdan chiqayotgan havo bo'g'izdagi tovush naychalari orasidan engil sirg'anib o'tadi. Odam hansiraganda ayni shu tovush eshitiladi.

و «wa:w» undoshi lab-lab undoshi hisoblanadi va uni talaffuz qilishda faqat lablar ishtirok etadi va talaffuz paytida ikki lab biroz cho'chchayib turadi.

ذ undoshini talaffuz qilish paytida tilning uchi oldingi ost-ust tishlari orasiga qo'yib turiladi (rasmga qarang).

Cho'ziq «u» unlisi. YOzuvda و «wa:w» undoshi - q u (damma)dan keyin kelsa, u cho'ziq «u:» ni ifoda etadi:



o'g'illar (banu:na) **بَنُو** ota(si) ('abu:) **أَبُو**

CHO'ziq «i:» unlisi: YOzuvda \bar{y} q i (kasra) dan keyin **ي** (ya:) harfi kelsa, u cho'ziq «i:» unlisini ifoda etadi:

uyim-(bayti[^]) **بَيْتِي** , dinim-(di:ni:) **دِينِي** , otam-('abi:) **أَبِي**

TANVIN KASRA

Tanvin kasra-**ِ** «in» deb o'qiladigan qo'shaloq kasra harakatidir.

U so'zning qaratqich kelishikda ekanligidan dalolat beradi:

uy**ining**-(baytin) **بَيْتِ** , qiz**ning**-(bintin) **بِنْتِ** , ot**aning** -('abin) **أَبِ**

TA: MARBUTA

Agar **هـ** undoshining alohida va so'z oxirida ko'ri-nishlarining ustiga qo'sh nuqta qo'yilsa, bu undosh «t» tovushini ham ifodalaydi: **ة , ة - t**

Bu harf «ta:-marbuta» (bog'langan «t») deb ataladi. Talaffuzi **ت** harfining (bu «t» ni «ta: mamduda» – cho'zilgan «t» deb ataladi) talaffuzi bilan bir xil.

«Ta:»marbuta muannas(qiz) jinsning asosiy ko'rsatkichidir.

Masalan:

o'ta sahiy ayol (wa-hu:-ba-tun) **وَهُو** qiz ('ib-na-tun) **إِبْنَةُ**

4- mashq. O'rgangan harflarning har bir ko'rinishini ikki qatordan yozib chiqing.

5- mashq. Harflarni bir- biriga mos ko'rinishlarida qo'shib so'zlarni yozing, ularni o'qing va yod oling:

uning(muzakkar) otasi	أَبُؤُقُؤُهُ
o'ta saxiy	وَقُؤُؤُقُؤُبُ
Vahba (kishi ismi)	وَقُؤُؤُقُؤُبُهُ
uning (muzakkar) qizi	إِبْنُؤُقُؤُتُؤُهُ
uning (muannas) qizi	إِبْنُؤُقُؤُتُؤُؤُهُ

bu (muzakkar)	هَذَا
bu (muannas)	هَذِهِ
U (muannas)	هِيَ
va (bog'lovchi)	وَ
uning(muzakkar) o'g'li	ابْنُهُ
uning(muannas) o'g'li	ابْنَتُهُ
u (muzakkar)	هُوَ
Hiba (qiz ismi)	هِيَ
qarz	أَيْنَ
qaerda?	أَيْنَ؟
qo'l	يَدُ
uyimiz	بَيْتُنَا
Ey!	يَا

6- *mashq.* Jummalarni o'qing, yozing va tarjima qiling. Mashqni qayta- qayta yozib ko'ring.

أَبُ وَابْنٌ. أَبٌ وَبِنْتُ. أَبٌ وَابْنٌ وَبِنْتُ. هُوَ أَبٌ. هُوَ ابْنٌ.
هِيَ ابْنَتُهُ وَوَهَبَهُ ابْنُهُ. هِيَ ابْنَتُهَا وَوَهَبَهُ ابْنَتُهَا. أَبُوهُ
وَهُوْبٌ.

يَا أَبُ! يَا ابْنُ! يَا بِنْتُ! يَا أَبِي! يَا ابْنِي! يَا بِنْتِي! أَيْنَ
أَبُوهُ؟ هَذَا أَبُوهُ! أَيْنَ أَبُوهَا؟ هَذَا أَبُوهَا! هُوَ ابْنِي وَهِيَ
بِنْتِي. أَيْنَ هِيَ؟ هَذِهِ هِيَ! أَيْنَ وَهِيَ؟ هَذَا هُوَ! أَيْنَ بَيْتُهُ؟
هَذَا بَيْتُهُ! أَيْنَ بَيْتُهَا؟ هَذَا بَيْتُهَا! هَذَا دِينِي. هَذِهِ يَدِي. هَذِهِ
يَدُهُ. هَذِهِ يَدُهَا. أَيْنَ أَبِي؟ هَذَا هُوَ!

الْدَّرْسُ الثَّلَاثُ UCHINCHI DARS

ك , ل , م UNDOSHLARI



Imlosi: ل va م undoshlarining soʻz boshida va soʻz oʻrtasida koʻrinishlari satr ustida yoziladi. Ularning alohida va soʻz oxirida koʻrinishlari esa satr ustida boshlanib, satr ostida tugallanadi. ك harfining hamma koʻrinishlari satr ustida yoziladi.

«Laam» harfi «alif» harfi bilan maxsus birlashtirilgan shaklda yoziladi va ular لا va لا (ular «*lom-alif*» deb ataladi) shaklini hosil qiladi. Bunday shakl esa *ligatura* deb ataladi.

gan كَلَامٌ yoʻq لا

TASHDID BELGISI (SHADDA)

Soʻzda ikkita bir xil undosh yonma-yon kelganida, ularning faqat bittasi yozilib, ustiga «shadda» (yoki «tashdid») deb ataladigan ushbu ّ — belgi qoʻyiladi. SHadda undosh harfni ikkilantirib (ikkita qilib) oʻqilishini bildiradi:

zarur	(la: bu <u>d</u> -da)	لا (بُذِد) بُدّ
qachonki	(lam - <u>ma</u> :)	لَمَمَا (لَمَمَا) لَمَّا
U undadi	(dal- <u>la</u>)	دَل (دَلَل) دَلّ

ALIF MAQSURA

Baʼzi soʻzlarning oxirida «a» uzun unlisini ifodalashda «alif maqsura» («qisqa alif») deb ataladigan «ي» undoshi nuqtalarsiz kelishi mumkin. Alif maqsura faqat «fatha»dan soʻng va soʻzning oxirida keladi.

Alif maqsurani ushbu soʻzlarda koʻrish mumkin:

U keldi(*feʼl*) (ʼata:)أَتَى qachon? (mata:) مَتَى

Soʻzda alif maqsuradan keyin yana boshqa harf kelsa, u «alif» yoki «ya:» ga (yaʼni oʻzining asl shakliga) aylanadi:

men keldim -(ʼataytu) أَتَيْتُ ، bizga keldi- (ʼata:na:) أَتَانَا

«Alif maqsura» tovush oʻzgarishlari natijasida naydo boʻlgan tovushdir.

TANVIN FATXA

Tanvin fatha_ - «an» deb o'qiladigan qo'shaloq fatha harakatidir-. Bu erdagi ikkinchi fatha sukunli nunni ifodalab kelayanti. U so'zni tushum kelishigida ekanligidan dalolat beradi:

أبًا (aban)-otani ، بِنْتًا (bintan)-qizni ، تَوْبَةً (tawbatan)-tavbani

7- *mashq.* O'rgangan harflarning har bir ko'rinishini ikki qatordan yozib chiqing.

8- *mashq.* Harflarni bir- biriga mos ko'rinishlarida qo'shib so'zlarni yozing, ularni o'qing va yod oling:

nima?	مَاذَا؟ مَا؟
siz ikkingiz (muz.-muan.)	أَنْتُمْ
u ikkovi (muz.-muan.)	هُمَا
kutubxona	مَكْتَبَةٌ
shahar	مَدِينَةٌ
yo'zuvchilar (muan.)	كُتَّابَةٌ
yo'zding (muzakkar)	كُتِّبَتْ
kim?	مَنْ؟
anavi (muz.)	ذَلِكَ
sizlar (muz.)	أَنْتُمْ
podsho	مَلِكٌ
anavi (muan.)	تِلْكَ
sizlar (muan.)	أَنْتُمْ
ular (muan.)	هُنَّ
yo'zuvchilar (muzakkar)	كُتِّبُوا

ح harfining hamma ko'rinishlari satr ostida yoziladi.

Talaffuzi: ح undoshini talaffuz qilishda chiqayotgan havo halqum devorlari orasidan unga qattiq ishqalanib, sirg'anib o'tadi. Talaffuz jarayonida hech qanday to'siqqa uchramaydi (ya'ni, qirilmaydi, rasmga qarang).

ح undoshi "kasra" bilan kelganda ingichkaroq va "fatha" yoki "damma" bilan kelganda yo'g'onroq talaffuz qilinadi.

KISHILIK OLMOSHLARI

Arab tilida ikki xil: alohida yoziluvchi kishilik olmoshlari (الضَّمِيرُ الْمُفَصَّلُ) va birikib yoziluvchi (الضَّمِيرُ الْمُتَّصِلُ) kishilik olmoshlari bor. Kishilik olmoshlari quyidagi jadvalda berilgan.

Alohida yoziluvchi kishilik olmoshlari jadvali:

ko'nik	ikkilik	birlik	jins, son	shaxs
biz نَحْنُ	-----	men أَنَا	muzakkar muannas	I sh
siz أَنْتُمْ	siz ikkingiz أَنْتُمَا	sen أَنْتَ	muzakkar	II sh
siz أَنْتِنَّ	siz ikkingiz أَنْتِمَا	sen أَنْتِ	muannas	
ular هُمْ	u ikkovi هُمَا	u هُوَ	muzakkar	III sh
ular هُنَّ	u ikkovi هُمَا	u هِيَ	muannas	

Alohida yoziluvchi kishilik olmoshlari aniq shaxsni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bu olmoshlarda jins va son kategoriyalari mavjud.

BO'/INLAR

So'zlar bo'g'in yoki bo'g'inlardan tashkil tonadi. Har bir bo'g'in undosh harf bilan boshlanadi. Undosh harf bilan unli harfning ham bo'lishi shart. **Bo'g'inning boshida yoki oxirida ikki undosh yonma- yon kelmaydi.** Uch hil bo'g'in bor:

1. Qisqa bo'g'in- bir undosh va unlidan iborat; ka-ta-ba – u yozdi;
2. Cho'ziq bo'g'in- bir undosh va cho'ziq unlidan yoki undosh Qisqaunli Qundosh dan iborat: dar-sun – o'rganish; dars
3. O'ta cho'ziq bo'g'in- undosh Qcho'ziq unli Qundoshdan iborat: ha:r-run – issiq.

Qaysi tovush bilan tugashiga qarab bo'g'inlar ikki hil bo'ladi:

- a) ochiq bo'g'in (agar unli tovush bilan tugasa): la: - yo'q;
- b) yoniq bo'g'in (agar undosh tovush bilan tugasa): bay-tun -uy.

UR/U

Arab tilidagi urg'u boshqa tillardagi urg'udan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- 1) urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'inga qaraganda ovozni ko'tarib biroz kuch bilan talaffuz qilinadi;
- 2) urg'u hech qachon oxirgi bo'g'inga tushmaydi;
- 3) ikki bo'g'inli so'zda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi: **dar** - sun
- 4) ko'p bo'g'inli so'zlarda urg'u odatda cho'ziq bo'g'inga tushadi: yad-ru-**su**-na
- 5) qisqa bo'g'inlardan iborat bo'lgan ko'p bo'g'inli so'zlarda urg'u odatda ikkinchi bo'g'inga tushadi: ik-**ta**-sa-ba

10- mashq. O'rgangan harflarning har bir ko'rinishini ikki qatordan yozib chiqing.

11- mashq. Kishilik olmoshlarini yod oling. Urg'uga e'tibor bering.

12- mashq. Harflarni bir- biriga mos ko'rinishlarida qo'shib so'zlarni yozing, ularni o'qing va yod oling. Urg'uga e'tibor bering:

mudarris	مُدَّرِسٌ
o'rganish; dars	دَّرَسٌ
o'rganding	دَّرَسْتُ
biz	نَحْنُ
ism	إِسْمٌ
maktab	مَدْرَسَةٌ
o'rgandim	دَّرَسْتُ
U o'rgandi	دَّرَسَ

13- mashq. Matni o'qing, yozing, tarjima qiling va yod oling:

مَنْ أَنْتَ وَمِنْ أَيْنَ؟ أَنَا مُدَّرِسٌ. أَنَا مِنْ سُورِيَا. مَا
إِسْمُكَ؟ إِسْمِي مُحَمَّدٌ أَحْمَدٌ حُسَيْنٌ. مَنْ أَنْتِ وَمِنْ أَيْنَ؟ أَنَا
مُدَّرِسَةٌ. أَنَا مِنْ مَوْرِيْتَانِيَا. مَا إِسْمُكَ؟ إِسْمِي حَلِيمَةٌ بِنْتُ
حَسَنٍ. مَنْ أَنْتُمْ وَمِنْ أَيْنَ؟ نَحْنُ مُدَّرِسُونَ. نَحْنُ مِنْ ثُونِيْسَ.
مَنْ أَنْتُمْ وَمِنْ أَيْنَ؟ نَحْنُ مُدَّرِسَاتٌ. نَحْنُ مِنْ بَحْرَيْنَ. مَاذَا

O'qiladigan hamza so'zning o'zak tashkil qiluvchi hamzasidir. U so'zning hamma erida keladi va to'liq o'qiladi, aniq talaffuz qilinadi va yozuvda saqlanadi:

xabarlar	أَخْبَارٌ	haqiqatda(yuklama)	إِنَّ
so'rovchi	سَائِلٌ	...ki (yuklama)	أَنَّ
quduq	بَيْرٌ	bosh	رَأْسٌ

Imlosi: So'z boshida hamzaga, u qaysi harakat bilan kelgan bo'lishiga qaramay, kursi vazifasini doimo ا (alif) harfi bajaradi.

So'z o'rtasi yoki oxirida kelayotgan hamzaga kursi vazifasini ا و ي undoshlaridan biri bajaradi. Ulardan qaysi birining kursi bo'lib kelishi ushbu «harakatlarning kattaligi» qoidasiga binoan hal qilinadi:

1. Kasra (unga «ي» undoshi tabiatan mos keladi);
2. Damma (unga «و» undoshi tabiatan mos keladi);
3. Fatha (unga «ا» undoshi tabiatan mos keladi);
4. Sukun (eslab qolish uchun: **i u a n**).

Hamzaning kursisini tonish uchun uning o'ng va chap tomonlarida kelayotgan ikkita harakat (unli tovush) qiyoslab ko'riladi. Qaysi harakat katta bo'lsa, hamzaga o'sha harakatga tabiatan muvofiq undosh kursi bo'ladi. Misollar:

yomon	سَيِّئٌ	qurultoy	مُؤْتَمَرٌ
kechiktirish	تَأْخِيرٌ	o'smoq	نَشَأٌ
ovqat zahirasi	مَوْؤِنَةٌ	u nok bo'ldi	بَرِيءٌ

So'zning oxirida «sukun» yoki «a:», «i:», «u:» cho'ziq unlilaridan keyin kelgan hamza undoshi, hamda so'zning o'rtasida cho'ziq «a:» dan keyin va qisqa «a» dan avval kelgan hamza kursisiz yolg'iz o'zi yoziladi:

U savol bilan murojaat qildi;	سَاءَلٌ	narsa	شَيْءٌ
so'rashdi			
sotib olish	شَرَاءٌ	yomon	رَدِيءٌ
noklik	بَرَاءَةٌ	to'liq	مَمْلُوءٌ

Madda belgisi: agar hamza cho'ziq «a:»unlisi bilan kelsa, yoki undan keyin yana bir hamza kelsa yozuvda ularni ustiga ushbu *madda belgisi* (~) qo'yilgan alif harfi ifodalaydi. (11-betga qarang). Madda so'zning hamma erida kelishi mumkin. Misollar:

oxirgi	أَخِرٌ	boshqa	آخِرٌ	ishondi; iymon keltirdi	أَقَامَنَ
	رٌ				أَمَنَ

15- mashq. O'rgangan harflarning har bir ko'rinishini ikki qatordan yozib chiqing.

16- mashq. Ushbu so'zlarni yozing, o'qing, transkriptiya qiling. Hamzaning yozilishi va uning kursisiga e'tibor bering.

u boshladi	بَدَأَ	u ko'rdi	رَأَى
ish; buyruq	أَمَرَ	tabrikladi	هَنَّأَ
kechiktirish	تَأَخَّرَ	tarixchi	مُؤَرِّخٌ
u bitim tuzdi	تَمَرَ	u keldi	أَتَى
kechiktirish	تَأَخَّرَ	odob; adabiyot	أَدَبٌ
yomon	سَيِّئٌ	Xush kelibsiz!	أَهْلًا وَسَهْلًا
u oldi	أَخَذَ	so'rovchi	سَائِلٌ
paydo bo'ldi	نَشَأَ	kechqurun(da)	مَسَاءً

17- mashq. Ushbu so'zlarni arabcha harf bilan yozing.

u so'radi	sa'ala	Osiyo	'a:siya:
so'raldi	su'ila	Ovruno	'urubba:
savol	su'a:lun	buyurdi	'a:mara
savollar	'as'ilatun	masala	mas'alatun
u yoritdi	'ana:ra	birlashdi	'ittahada
yuz	mi'atun	bosh tortdi	'aba:
bo'ri	zi'bun	oldi	'axazat
og'riq	'alamun	azoblanmoq	ta'allama

18- mashq. Matnni yozing, o'qing, tarjima qiling va yod oling.

أَهْلًا وَسَهْلًا يَا زُخَيْرُ، هَذَا وَوَلَدٌ. وَأَسْمُهُ هَاشِمٌ. هُوَ مِنْ شِمَالِ
سُورِيَا. هُوَ سُورِيٌّ. تِلْكَ بِنْتُ. وَأَسْمُهَا زَيْنَبُ. هِيَ مِنْ شِمَالِ
بَحْرَيْنَ. هِيَ بَحْرَيْنِيَّةٌ. ذَلِكَ خَادِمٌ. هُوَ يَشْرَبُ شَايَا. وَأَسْمُهُ خَالِدٌ. هُوَ
مِنْ تُونِسَ. هُوَ تُونِسِيٌّ.
أَهْلًا وَسَهْلًا يَا شَادِيَّةُ، هَذِهِ خَادِمَةٌ. وَأَسْمُهَا شُكْرِيَّةٌ. هِيَ مِنْ
تُونِسَ. هِيَ تُونِسِيَّةٌ. مَنْ هُوَ يَا شَاكِرُ؟ هُوَ مُؤَرِّخٌ مَشْهُورٌ. هَلْ
إِسْمُهُ شُرَيْمٌ؟ لَا، إِسْمُهُ زَيْدٌ. هَلْ زَيْبِرٌ سُوْدَانِيٌّ؟ لَا، هُوَ لَيْسَ

سُودَانِيًّا. هُوَ بَحْرِيْنِي. هُوَ شَيْخُ الْإِسْلَامِ. هَلْ هَذِهِ مَسْئَلَةٌ مُهِمَّةٌ؟ لَا،
لَيْسَ هَذِهِ مَسْئَلَةٌ مُهِمَّةٌ.

كَلِمَاتٌ

هَلْ؟ . . .mi? (umumiy so'roq yuklamasi)
yo'q; emas (لَيْسَ) (muan. لَيْسَتْ)
لَا yo'q (شَيْخُ الْإِسْلَامِ) shayxulislom

الدَّرْسُ السَّادِسُ OLTINCHI DARS

UNDOSHLARI ظ, ط, ض, ص

ص ص ص ص ض ض ض ض ط ط ط ط ظ ظ ظ ظ
ظ ط


Imlosi: ص va ض undoshlarining so'z boshida va so'z o'rtasida ko'rinishlari satr ustida yoziladi. Ularning alohida va so'z oxirida ko'rinishlari esa satr ustida boshlanib, satr ostida tugallanadi. ط va ظ harflarining hamma ko'rinishi satr ustida yoziladi.

Talaffuzi: Emfatik tovush nast ohang bilan, ammo yo'g'on talaffuz qilinadi va yonidagi undosh tovushlarning ham qattiq talaffuz qilinishiga sababchi bo'ladi.





ص undoshini talaffuz qilishda tilning uchi oldingi ikki tena tishning ichki milkiga tegib turadi va tilning oldingi qismi bilan yuqori tanglay orasida tor tirqish paydo bo'ladi. Bu undoshni hosil qilish jarayonida paydo bo'lgan havo shu tirqishdan kuch bilan sirg'anib chiqadi. U ancha bo'g'iq, talaffuzi esa xira bo'ladi.

ض undoshini talaffuz qilishda tilning oldingi qismi yuqori tanglayga qattiq tiralib, til uchi esa oldingi tena tishlarga orqa tarafdan biroz tegib turadi. Talaffuzi bo'g'iq. ض tovushi faqat arab tilida bor bo'lib, boshqa tillarda yo'q. SHuning uchun arablarni yana "Ahlu-d-do:d" (d harfini talaffuz qiluvchilar) deb ham ataydilar.



ط undoshini tilning oldingi yarim qismini yuqori tishlarga tomon ko'tarib



va tanglay tomonga yo'naltirilgan holda talaffuz qilish kerak bo'ladi.

Nutq paytida ظ undoshini tilning uchini oldingi ikki ost-ust tishlarining orasiga qo'yib bo'g'iq talaffuz qilinadi.

19- mashq. O'rgangan harflarning har bir ko'rinishini ikki qatordan yozib chiqing.

20- mashq. Harflarni bir- biriga mos ko'rinishlarida qo'shib so'zlarni yozing, ularni o'qing va yod oling:

ofister	ضَوَابِطُ	aeroport	مَطَاهِرٌ
neshinda	ظُهُورًا	talaba	طَوَابِلُ
faol	نَشَوِيَّاتٌ	ertalab	صَبَاحًا
uchadi (muannas)	تَطَوُّرٌ	uchadi (muzakkar)	يَطَوُّرٌ
yoki (bog'lovchi)	أَهْمٌ (أَو)	uchoq(samolyot)	طَوَّارَةٌ
kuluvchi (kulayanti)	ضَوَّاحٌ	matn	نَوَّاصٌ
kasal	مَرَرِيَّاتٌ	etib keldi (muannas)	وَصَلَتْ
ham	أَهْيَاضًا	etib keldi (muzakkar)	وَصَلَ
kechqurun	مَهْسَاءً	bor (kelgan)	حَاضِرٌ

21- mashq. Matni o'qing, yozing, tarjima qiling va yod oling:

مِنْ أَيْنَ وَصَلَ مُرْتَضَى؟ وَصَلَ مُرْتَضَى مِنْ مِصْرَ.
مَتَى وَصَلَ؟ وَصَلَ صَبَاحًا. هُوَ ضَابِطٌ. صَالِحٌ ضَابِطٌ أَيْضًا.
هُوَ وَصَلَ مِنْ مَطَارِ بُخَارَى. تَطِيرُ طَائِرَتِي صَبَاحًا. مَتَى
تَطِيرُ طَائِرَتُكُمْ، ظَهْرًا أَمْ مَسَاءً؟ مَسَاءً! طَاهِرٌ طَالِبٌ نَشِيطٌ.
صَالِحَةُ طَالِبَةٌ نَشِيطَةٌ أَيْضًا. هُمَا مِنْ مِصْرَ. هَلْ نَاطِمٌ
وَكَاطِمٌ حَاضِرَانِ؟ لَا، هُمَا مَرِيضَانِ. هُمَا طَالِبَانِ نَشِيطَانِ.
هَلْ صَالِحَةٌ وَنَصِيبَةٌ مَرِيضَتَانِ؟ لَا، هُمَا سَالِمَتَانِ. هُمَا

ko'cha	شَوَارِعٌ	uzoq	بَعِيدٌ
so'zlab ber!	حَدِّدْهُ	olim	عَاقِلٌ
chiroyli	جَمِيلٌ	ha	نَعِيمٌ
ishlaydi (muan.)	تَعْمَلُ	..dan; haqida (old ko'makchi)	عَمَلٌ

VASLALI (BIRIKTIRUVCHI) HAMZA

Arab tilidagi bir bo'g'inda yonma-yon turgan ikkita undosh harf bilan boshlangan *bun*, *smun*, *mru'un* kabi o'qilishi qiyin bo'lgan so'zlarning oldida vaslali hamza yoziladi. U bu so'zning oldiga undan oldin kelayotgan so'zning oxiridagi **a, u, i** kabi bir qisqa unlini qo'shib, bu bo'g'inni ikki alohida bo'g'inga bo'lib yuborib uni o'qishni osonlashtirish uchun qo'yiladi: *mru'un-* *'im-ru-'un* kabi.

Aslida, vaslali hamza bu so'zning o'zak harfi emas.

YOZUVDA vaslali hamzani harakatsiz alif ifoda etadi:

ابْنٌ ، ابْنَةٌ ، اسْمٌ ، اثْنَانُ ، امْرَأَةٌ ، امْتَنَعَ

Agar bu so'zlar garning boshida kelsa «i» unlisini olib qat'iy hamza kabi o'qiladi:

ikki (‘isna:ni) اِثْنَانُ ism (‘ismun) اِسْمٌ

Agar vaslali hamza bilan boshlangan so'z garning o'rtasi yoki oxirida kelsa, uning hamzasi o'qilmay bu so'zni o'zidan oldingi so'zning unlisi bilan biriktirib-«**vasl**» qilib o'qiladi, chunki qoida bo'yicha vaslali hamza bilan boshlangan so'zga undan oldin kelayotgan so'z qo'shilib o'qilishi talab qilinadi:

سَأَلَ ابْنٌ ، مَنْ اِنْعَدَمَ ؟ sa'ala-bnu , man-i-neadama?

24- mashq. So'z va iboralarni yozing, o'qing va transkriptiya qiling:

“Bu – qizim Nabila”.	"هَذِهِ ابْنَتِي نَبِيلَةٌ"	ابْنَةٌ
Isming nima?	مَا اسْمُكَ؟	اسْمٌ
O'tir, dam ol!	وَأَجْلِسْ وَاسْتَرِحْ!	اسْتَرِحْ
Ol, ich!	خُذْ وَاشْرَبْ!	اشْرَبْ

YOz va uni tushuntirib ber!

اَكْتُبْ، وَ اَكْتُبْ
اَشْرَحْ وَ اَشْرَحْهَا!

ال ARTIKLI. ال ARTIKLINING HAMZASI

Ganning borishiga qarab jumladagi soʻz aniq yoki noaniq holatda boʻladi. Noaniq holatdagi soʻz odatda tanvinga tugagan boʻladi.

Soʻzning aniq holatda ekanligini koʻrsatib turadigan belgi esa ل aniqlik artiklidir. ل aniqlik artikli oldiga ham oʻqishni engillatish uchun vaslali, yaʼni biriktiruvchi hamza qoʻyilgan. U faqat ganning boshida kelganida «al» deb oʻqiladi. SHuning uchun bizda uni ال «al» aniqlik artikli deb atashadi:

xat - ('al-mak-tu:-bu) اَلْمَكْتُوبُ kitob - ('al-ki-ta:-bu) اَلْكِتَابُ

Ushbu soʻzlarning boshidagi م va ك harflari qamariya harflari edi. SHuning uchun bu soʻzlardagi ال artiklining ل harfi toʻliq oʻqilayanti. (32-betga qarang).

Agar soʻz shamsiya harf bilan boshlangan boʻlsa, aniqlik artiklining ل harfi shamsiya harf taʼsirida assimilyastiyaga uchraydi, yaʼni xuddi oʻsha shamsiya harf kabi talaffuz qilinadi va yozuvda shamsiya harf ustiga «shadda» belgisi qoʻyiladi. Masalan, اَلشَّمْسُ soʻzi «al-sham-su emas, balki «ash - sham-su deb oʻqiladi:

tinchlik ('as-sa-la:-mu) اَلسَّلَامُ dars ('ad-dar-su) اَلدَّرْسُ

Ikki ta soʻzning oʻrtasida kelgan vaslali hamza ل harfi bilan oldindagi soʻzning oxirgi undoshining unlisini vasl qiladi:

U xat yozdi. (kataba-l-maktu:ba) كَتَبَ اَلْمَكْتُوبَ

U kitob oldi. ('axaza-l-kita:ba) اَخَذَ اَلْكِتَابَ

Agar vaslali hamzali yoki ال artiklini olgan soʻzdan oldingi soʻzning oxiri sukun bilan tugagan boʻlsa, undan oldingi undosh harfning harakatiga qaraladi. Agar u «a» boʻlsa, vaslali hamza «i», agar «i», boʻlsa va u soʻz feʼl boʻlmasa vaslali hamza «a», «u» boʻlsa vaslali hamza ham «u» deb oʻqiladi.

Masalan: maktabdan (mina-l-madrasati) مِّنَ الْمَدْرَسَةِ

Direktor kim? (mani-l-mudi:ru) مَنِ الْمُدِيرِ؟

Ular, musulmonlar... (humu-l-muslimu:na) هُمُ الْمُسْلِمُونَ

Agar bu soʻz feʼl boʻlsa ال ning vaslali hamzasi «i» deb oʻqiladi:

darsni yoz! ('uk-tu-bi-d-darsa) -: اَكْتُبِ الدَّرْسَ

Aniq holatdagi soʻz oldida ل old koʻmakchisi qoʻshilib yozilganida (l) alif yozuvda tushib qoladi - yozilmaydi. Masalan:

لِالْبَيْتِ ← لِالْبَيْتِ (لا لِالْبَيْتِ) emas

لِالمُعَلِّمِ ← لِالمُعَلِّمِ (لا لِالمُعَلِّمِ) emas

Agar ل harfi bilan boshlangan aniq holatdagi soʻz oldiga ل koʻmakchisi birikib kelsa, yozuvda aniqlik artikli tushib qoladi - yozilmaydi. Aslida alif tushib qoladi, ل harfi esa saqlanib qoladi, chunki soʻzning ل harfi ikkilanib kelayanti. Masalan:

til uchun – لِلسَانِ (emas لِلسَانِ)
Tanvinga tugagan soʻzni vasl qilishda vaslali hamza kasra bilan harakatlanadi.

KELISHIK KATEGORIYASI

Kelishiklar otni otga yoki otni fe'lga bogʻlab, garri boʻlklari oʻrtasidagi munosabatlarni aniqlashtirib keladi. Arab tilida uchta kelishik bor. Ular: 1. Bosh kelishik. 2.

Qaratqich kelishik. 3. Tushum kelishik. **Ismlarni uch kelishikda turlash jadvali:**

holat	kelishik	muzakkar jins	muannas jins	kelishik qoʻshimcha
noaniq	bosh	كِتَابٌ kitob	مَدْرَسَةٌ maktab	-(-un)
	qaratqich	كِتَابٍ kitobning	مَدْرَسَةٍ maktabning	=(-in)
	tushum	كِتَابًا kitobni	مَدْرَسَةً maktabni	-(-an)
aniq	bosh	الْكِتَابُ kitob	الْمَدْرَسَةُ maktab	-(-u)
	qaratqich	الْكِتَابِ kitobning	الْمَدْرَسَةِ maktabning	=(-i)
	tushum	الْكِتَابَ kitobni	الْمَدْرَسَةَ maktabni	-(-a)

Jadvalga izoh: Agar soʻz tanvin fathaga tugasa uning oxiriga oʻqilmaydigan alif harfi yoziladi. Agar «ta-marbuta» yoki yolgʻiz «hamza» soʻz oxirida tanvin fatha bilan kelsa undan keyin alif yozilmaydi.

25- **mashq.** Ushbu soʻzlarni aniq va noaniq holatlarda kelishiklarda turlang. Oʻqing va tarjimasini aniqlang (32-betdagi shamsiya va qamariya harflariga qarab):

بَيْتٌ، دَرَسٌ، مُدْرَسٌ، مَرِيضٌ، رَجُلٌ، سَلَامٌ، كَلَامٌ، صَبْرٌ، عَجَلَةٌ.

26- **mashq.** Matnni oʻqib tarjima qiling va yod olib soʻzlab bering.

عَائِلَتُنَا

حَدَّثَ عَنْ عَائِلَتِكَ! عَائِلَتُنَا كَبِيرَةٌ. هِيَ تَتَكَوَّنُ مِنْ عِدَّةٍ أَشْخَاصٍ. لَنَا مَنْزِلٌ كَبِيرٌ وَجَمِيلٌ. لِي أَبٌ وَأُمٌّ. أَبِي يَعْمَلُ. هُوَ مُدْرَسٌ بِالْجَامِعَةِ الدِّيْلُومَاسِيَّةِ. أُمِّي تَعْمَلُ أَيْضًا. هِيَ مُدِيرَةٌ الْمَدْرَسَةِ الثَّانَوِيَّةِ. لِي أَخٌ كَبِيرٌ وَأَخْتٌ كَبِيرَةٌ أَيْضًا. أَخِي اسْمُهُ

Soʻzning boshida ال ning ل harfi oʻqilishi yoki oʻqilmasligiga qarab arab alifbosi ikki teng qismga boʻlinadi. Ularning 14 tasi “qamariya”(“oy”) harflari va qolgan 14 tasi “shamsiya” (“quyosh”) harflaridir.

Oʻn toʻrtta qamariya harflar quyidagilar va ularni yoddan bilish zarur:

ا ب ج ح خ ع غ ف ق ك م ه و ي

Oʻn toʻrtta shamsiya harflar quyidagilar va ularni ham yoddan bilish zarur:

ت ث د ذ ر ز س ش ص ض ط ظ ل ن

28- *mashq.* Oʻrgangan harflarning har bir koʻrinishini ikki qatordan yozib chiqing.

29- *mashq.* Qamariya va shamsiya harflarni yod oling.

30- *mashq.* Harflarni bir- biriga mos koʻrinishlarida qoʻshib soʻzlarni yozing, ularni oʻqing va yod oling:

xona	خَوْنَةٌ	shifoxona	مُسْتَشْفَى
kichkina	رُكْبَانٌ	mashgʻul; band	مَشْغُولٌ
ruchka	قَلَمٌ	chol	شَقِيحٌ
..da; ichida (koʻmakchi)	يَهْفِ	nafaqa(nensiya)	تَقْرَأُ
marhamat qil!	تَهْفِ	qoʻshiqchi	مُغَنِّنٌ
mehmonxona	فُنْدُقٌ	rahmat!	شُكْرًا

SOʻZ OʻZAGI. OʻZAK UNDOSHLAR. SHAKL YASOVCHI UNDOSHLAR

Arabcha soʻzning oʻzagi faqat undosh harflardan iborat boʻladi. Arab alifbosidagi barcha harflar oʻzak (tashkil qiluvchi) undoshlar hisoblanadi. Oʻzakdagi asosiy undoshlarning ketma-ketligini buzmay ularning oldiga, ortiga, orasiga unli va undoshlarni qoʻshib yangi soʻzlar hosil qilinadi.

biluvchi; olim	عَالِمٌ	bildi	عَلِمَ
soʻrab bildi	اسْتَعْلَمَ	bilim , bilish	عَلِمَ

ta'lim beruvchi	مُعَلِّمٌ	ma'lum; bilingan	مَعْلُومٌ
ta'lim	تَعْلِيمٌ	o'rgandi	تَعَلَّمَ

O'zakning asosiy ma'nosi علم «bilim» hamma so'zda saqlangan. Bu erdagi qo'shimcha undoshlar shakl yasovchi undoshlardir.

SHakl yasovchi undoshlar 10 ta bo'lib ا ل ي و م ت ن س اه undoshlaridir. Ularni yodda saqlash oson bo'lishi uchun، اَلْيَوْمَ تَنْسَاهُ «Bugun sen uni unutasan». degan shakliga solingan. Bu erdagi ا و ي harfi ة ni ham bildiradi ا و ي undoshlari esa shakl yasovchi cho'ziq unlilar sifatida ham nazarda tutilgan.

31- *mashq.* Ushbu so'z guruhlarining o'zak undoshlarini toning:

۱. اَعْتَرَفْتُ ، عَرَفْتُ ، اَعْتَرَفْتُ ، عَرَفْتُ ، مَعْرُوفٌ ، تَعْرِيفٌ ؛
۲. رَحِمَنْ ، رَحِيمٌ ، مَرْحُومٌ ، رَحْمَةٌ ، مَرَحْمَةٌ ، تَرْحَمٌ ؛
۳. تَعَلَّقَ ، تَعَلَّقُ ، تَعَلِّقُ ، عَلَاقَةٌ ، مُعَلِّقٌ ، مُتَعَلِّقٌ ؛
۴. تَمَجَّدَ ، تَمَجِّدُ ، مَجِيدٌ ، مَجِيدٌ ، مَاجِدٌ ، أَمَجِدٌ ؛
۵. حَسَنَةٌ ، حَسَنٌ ، تَحْسِينٌ ، اسْتَحْسَنَ ، أَحْسَنَ ، تَحَسَّنَ .

32- *mashq.* Ushbu so'zlarning o'zak va shakl yasovchi harflarini aniqlang.

So'zlarning ma'nolarini lug'at kitobidan tonib, yozib qo'ying:

مِصْبَاحٌ، مُعَامَلَةٌ، مَشْهُورٌ، مَأْمُولٌ، مَقْعَدٌ، فُقُلٌ، ذِهَابٌ، كَثِيرٌ
، صَدَاقَةٌ.

SO'Z QOLIHLARI

Arab tilidagi so'zlarning xilma-xil shakllarini bir tartibga solish maqsadida ularni qolinq (vazn)lar bilan ifodalanadi. Masalan, uch harfli I bob fe'lining umumiy qolinq sifatida «ع» qildi o'zagi ishlatiladi Bunda «ف» harfi fe'lining birinchi o'zak undoshini, «ع» harfi ikkinchi o'zak undoshni, «ل» harfi esa uchinchi o'zak undoshni ifodalaydi. Har qanday so'zning qolinq shu harflar asosida yasaladi. Harakatlari va shakl yasovchi undoshlari esa shundoq ko'chirib qo'yiladi. Bizga tanish quyidagi so'zlar ushbu qolinqlar bo'yicha yasalgan ekan:

فَعَلٌ ← دَرَسَ؛ فَعِلٌ ← عَلِمَ؛ فَعُلٌ ← عَلِمَ؛ فَاعِلٌ ← عَالِمٌ؛ مَفْعَلَةٌ ← مَدْرَسَةٌ.

To'rt yoki besh harfli fe'lni yoki undan yasalgan ismni qolinga solinganda to'rtinchi undosh ham, beshinchi undosh ham ل harfi bilan belgilanadi:

تَرْجَمَ ← فَعَّلَ ؛ مَتَرَجِمُ ← مَفْعَلٌ ؛ سَفَرَجَلٌ ← فَعَّلٌ .

LU/AT BILAN ISHLASH

Lug'atlar asosan o'zak asosida tuzilgan bo'ladi. Ularda bir o'zakka oid bo'lgan so'zlar bir joyda beriladi. Bunday lug'at bilan ishlashda so'zning tarjimasini bilish uchun avval uning o'zagini aniqlash kerak. Ammo bu narsaga ko'p o'qib, o'rganib erishiladi. Agar o'quvchiga bir o'zakka oid bir necha so'zlar ma'lum bo'lsa, ularning o'zagini tomish osonroq bo'ladi.

Masalan, دَرَسٌ، مَدْرَسَةٌ، تَدْرِسُ، مُدْرَسٌ so'zlari «درس» o'zagi asosida va كَلِمَةٌ، مَتَكَلَّمٌ، كَلَامٌ، تَكَلَّمَ so'zlarining o'zagi esa «كلم» o'zagi asosida hosil qilingan ekan.

Ushbu so'zlarning ma'nosini tomishda ularni lug'atdan shu o'zaklar bo'yicha qidirish lozim. YA'ni أَحْمَدٌ، حَمِيدٌ، حَمْدٌ so'zlarining ma'nolarini lug'atlarda alifbo tartibida emas, balki uni «ح» harfidan boshlab «حمد» o'zagidan qidirish kerak bo'ladi.

33- mashq. Matni o'qib tarjima qiling va yod olib so'zlab bering.

أَقْرَبَاؤُنَا

إِنَّ أَشِقَاءَ وَالِدِيَّ هُمْ أَقْرَبَاؤُنَا. شَقِيقُ أَبِي هُوَ عَمِّي
وَشَقِيقَتُهُ عَمَّتِي. لَنَا عَمٌّ وَعَمَّتَانِ. أَمَّا عَمِّي فَهُوَ شَيْخٌ فِي
التَّقَاعِدِ وَهُوَ مَشْغُولٌ بِأَعْمَالِ الْمَنْزِلِ. أَمَّا عَمَّتِي الْكَبِيرَةُ فَقَدْ
تُوَفِّيتُ فِي الْعَامِ الْمَاضِي. وَأَمَّا عَمَّتِي الصَّغِيرَةُ فَهِيَ تَعْمَلُ
فِي الْمَوْسَسَةِ الْحُكُومِيَّةِ.

شَقِيقُ أُمِّي هُوَ خَالِي وَشَقِيقَتُهَا هِيَ خَالَتِي. لَنَا خَالَتَانِ
وَخَالَ. أَمَّا خَالِي فَهُوَ مُغْنٍ مَشْهُورٌ وَيَعْمَلُ فِي وَزَارَةِ الثَّقَافَةِ.
أَمَّا خَالَتَايَ فَهُمَا مُمَرِّضَتَانِ فِي الْمُسْتَشْفَى.

... ga kelsak;

esa

band

أَمَّا ... فَـ ...

مَشْغُولٌ

qarindoshlar

tug'ishgan(lar)

أَقْرَبَاءٌ

شَقِيقٌ

		(aka yoki uka)	(أَشِقَاءُ)
uy yumushlari	أَعْمَالُ الْمَنْزِلِ	ota-onamning tug'ishganlari	أَشِقَاءُ وَالِدَيْ
uy bekasi	رَبَّةُ الْمَنْزِلِ	tug'ishgan(lar) (ona , singil)	شَقِيقَةٌ (شَقَائِقُ)
ikki hamshira	مُمَرِّضَتَانِ	amaki(lar)	عَمٌّ (أَعْمَامُ)
Madaniyat vazirligi	وَزَارَةُ التَّقَاةِ	amma(lar)	عَمَّةُ (عَمَّاتُ)
vafot etgan	فَقَدَ نُوفِيَّتُ	tog'a(lar)	خَالَ (أَخْوَالُ)
o'tgan yili	الْعَامُ الْمَاضِي	xola(lar)	خَالَةٌ (خَالَاتُ)
ishlaydi	(مُؤَسَّسَةٌ) يَعْمَلُ	davlat muassasasi	مُؤَسَّسَةٌ حُكُومِيَّةٌ

34- mashq. Ushbu hadisi sharifni o'qing, yozing va yod olib amal qiling:

مَنْ سَلَكَ طَرِيقًا يَلْتَمِسُ فِيهِ عِلْمًا سَهَّلَ اللَّهُ طَرِيقَهُ إِلَى الْجَنَّةِ.
Kimki ilm o'rganadigan yo'ldan yursa Alloh uning jannatga boradigan yo'lini
oson qilib qo'yadi.

ARAB ALIFBOSI HARFLARI
(UMUMIY JADVAL)

Harfning yozilishi				Ko'rinishlari soni	Transkriptsiya	Harf nomi		Tartib raqami
mustaqil ko'rinishi (alohida ko'rinishi)	o'ng tomoni bilan birikishi (so'z oxirida)	ikki tomoni bilan birikishi (so'z o'rtasida)	CHau tomoni bilan birikishi (so'z boshida)			O'zbekcha	Arabcha	
ا	ا	ا	ا	5	4	3	2	1
ب	ب	ب	ب	2	-	Alif	ألف	1
ب	ب	ب	ب	4	b	Ba:	باء	2
ت	ت	ت	ت	4	t	Ta:	تاء	3
ث	ث	ث	ث	4	ʃ	ʃa:	ثاء	4
ج	ج	ج	ج	4	j	Ji:m	جيم	5
ح	ح	ح	ح	4	h	Ha:	حاء	6
خ	خ	خ	خ	4	x	Xa:	خاء	7
د	د	د	د	2	d	Da:l	دال	8
ذ	ذ	ذ	ذ	2	z	Za:l	ذال	9
ر	ر	ر	ر	2	r	Ra:	راء	10
ز	ز	ز	ز	2	z	Za:y	زاي	11
س	س	س	س	4	s	Si:n	سین	12
ش	ش	ش	ش	4	sh	Shi:n	شین	13
ص	ص	ص	ص	4	s.	S.a:d	صاد	14
ض	ض	ض	ض	4	d.	D.a:d	ضاد	15
ط	ط	ط	ط	4	t.	T.a:	طاء	16
ظ	ظ	ظ	ظ	4	z.	Z.a:	ظاء	17
ع	ع	ع	ع	4	ε	εayn	عین	18

9	8	7	6	5	4	3	2	1
غ	غ	غ	غ	4	g	Gayn	غين	19
ف	ف	ف	ف	4	f	Fa:	فاء	20
ق	ق	ق	ق	4	q	Qa:f	قاف	21
ك	ك	ك	ك	4	k	Ka:f	كاف	22
ل	ل	ل	ل	4	l	La:m	لام	23
م	م	م	م	4	m	Mi:m	ميم	24
ن	ن	ن	ن	4	n	Nu:n	نون	25
ه	ه	ه	ه	4	h	Ha:	هاء	26
و	و	و	و	2	w	Wa:w	واو	27
ي	ي	ي	ي	4	y	Ya:	ياء	28
ء	ؤأئ	أؤأ	أإ		،	Hamza	هَمْزَة	